



## KOMPOZITOR DILOROM OMONULLAYEVA IJODIY FAOLIYATIGA BIR NAZAR

**Muallif:** Ruhshona Samijonova<sup>1</sup>, Axadjon Mamadaliyev<sup>2</sup>

**Affilyatsiya:** O'zbekiston davlat konservatoriyasi “Cholg'u ijrochiligi” yonalishi 3-bosqich talabasi<sup>1</sup>, O'zDK “Xalq cholg'ularida ijrochilik” kafedrası dotsenti, Turon Fanlar Akademiyasi faxriy professori<sup>2</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14381986>

O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik madaniyatining yuksalishi, jahon klassik bastakorlari asarlarining o'zlashtirilishi, O'zbekiston bastakorlarining xalq cholg'ularida ijrochilik san'atini yanada yuksalishi uchun muhim zamin bo'ldi.

“San'atimizning buyuk merosini, yoshlarimizning nimalarga qodirligini dunyoga tarannum etish uchun. Institutga milliy san'atimizda fenomen bo'lgan Botir Zokirov nomini berganimiz ham bejiz emas. Bu yerda uning munosib izdoshlarini tarbiyalashni, iste'dodini yuzaga chiqarishni maqsad qilganmiz”[1].

“O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, kompozitor Dilorom Amanullaeva O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga 1989 yili estrada qo'shiqlari va boshqa asarlari bilan kirib keldi. U o'zining ijodiy faoliyati bilan respublika musiqa san'atining rivojlanish jarayoniga samarali hissa qo'shib kelmoqda”[2].

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san'ati instituti professori o'zining ijodiy faoliyati bilan Respublika musiqa san'atining rivojlanishiga samarali hissa qo'shib kelmoqda.

Dilorom Omonullayeva 1959-yil 1-oktabrda Toshkentda musiqachilar oilasida dunyoga keldi. Uning bobosi musiqali drama teatri artistlaridan biri Muhammadjon Xolmuhammedov, onasi shu teatrning artisti San'atxon Xolmuhammedova Diloromning qalbiga ona allalari bilan birga musiqiy mo'jizalar kirib keldi. Qobiliyatli qizcha V.Uspenskiy nomidagi maxsus musiqa maktabida fortepiano sinfi bo'yicha o'qiy boshladi. 12 yoshida esa, professor Boris Zeydman sinfida kompozitsiyadan ham qo'shimcha saboq oldi. Ilk asarlari orasida torli orkestr, urma cholg'ular va fortepiano uchun 5 qismli suitasini milliy simfonik orkestri ijro etdi va muvaffaqiyat qozondi.

Dilorom Omonullayeva 1978-yilni maktabni muvaffaqiyatli bitirib, Toshkent davlat konservatoriyasida professor Boris Zeydman sinfida o'qishni davom ettirdi, keyinchalik kompozitor Rumil Vildanov sinfida o'qishni imtiyozli diplom bilan bitirdi.

Yosh mutaxassis talabalik davridayoq Hamza xotirasiga bag'ishlangan fortepiano uchun sonata I “Samarqand manzaralari” fortepiano uchun “Sonata № 2”, bir necha romanslar va III qismli kvartet, fortepiano va fleyta uchun “Pomir eskizlari” polifonik pyesalarni taqdim etib, Toshkent davlat konservatoriyasini bitiruv imtixoniga taqdim etdi.

Yosh mutaxassis yo'llanma bilan Guliston san'at bilim yurtida 1984—1986 yillarda musiqa fanlaridan dars bera boshladi. 1986—1990-yillarda Omonullayeva

konservatoriyada professor T.Qurbonov sinfida assistent — stajyor sifatida saboq oladi. 1986-1990 yillarda D. Omonullayeva konservatoriyada professor To'liqin Qurbonov sinfida asistenturani bitirdi, so'ngra 1990—1993 yillarda konservatoriyada "Bastakorlik va cholg'ulashtirish kafedrasida"da o'qituvchi, 1993-yildan V. Uspenskiy nomidagi maxsus musiqa maktabida o'qituvchi bo'lib ishladi.

U zamondosh shoirlardan U. Azimov, D. Omonullayevaning ijodiy faoliyatida zamonaviy estrada qo'shiqchilik E.Obidov, N. Narzullayev. Z. Mo'minova, X. Xudoyberdiyeva va boshqalarning she'rlariga, turli mavzularda 100 dan ortiq qo'shiqlar yaratdi. Ular "Siz yoqqansiz menga hamisha", "Yomg'ir yog'di", "Saraton", "Sen qaydasan", "Ikki daraxt", "Azizim", "Yig'lama", "Yolg'on dunyo" va boshqalar shular jumlasidandir. Kompozitor turli yoshdagi bolalar uchun ham ko'p qo'shiqlar bastaladi. Uning qo'shiqlari teleradio to'liqlarida doimo yangrab kelmoqda. 1984-yil shoira Nodira g'azallariga 2 ta romans yozdi.

D. Omonullayeva musiqa san'atining boshqa janr va shakllarida ham asarlar yaratdi: fortepiano va simfonik orkestr uchun konsert, xor va orkestr uchun suite, kamer cholg'ular uchun musiqiy asarlar, jumladan, "Baxtimiz taronasi", "Istiqlol madhiyasi", "forteplano uchun sonata", forteplano uchun "Bolalar albomi", 5 ta kichik pyesa, "Kichikintoylar uchun musiqa" to'plamiga 20 ta qo'shiq va 30 ta raqs kuylari kiritilgan, "Topishmoq aytishuv", "Topishmoq qo'shiqlar", "Alifbe qo'shiqlari" va boshqalarni Teleradiokompaniyaning "Bulbulcha" xor jamoasi simfonik estrada jo'rligida ijro etib kelmoqda. Shuningdek, 1997-yil Usmon Azim she'riga "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali madhiyasini yaratdi. O'zbek milliy teatri ochilishi munosabati bilan "Milliy teatr madhiyasi" va vatanparvarlik mavzusida 30 ga yaqin qo'shiqlar yaratgan.

Dilrom Omonullayevani davlatimiz tomonidan "Do'stlik" ordeni, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, "Ofarin" mukofoti sohibasi, O'zbekiston vatanim manim va boshqa tanlovlar sovrindori.

Ustoz bugungi kunda yoshlarga saboq berib, estrada san'ati rivoji yo'lida tinmay mehnat qilayotganliklari taxsinga loyiqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Shavkat Mirziyoev. O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada instituti ochilish marosimidagi nitqi. 16.05.2024.

A.Jabborov. "O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari" to'ldirilgan 2-nashr. Toshkent 2015 yil. 38 bet.